

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI KONSONANTIZMIDA UNDOSH FONEMALARNING JARANGSIZLIK VA JARANGLILIK BELGILARI ASOSIDA ZIDLANISHI.

Abdurashidova Lobar

ChDPU gumanitar fanlar fakultiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi konsonantizm tizimi doirasida undosh fonemalarning jarangsizlik va jaranglilik belgilari asosida qarama-qarshi qo'yilishi (zidlanishi) masalasi tahlil etiladi. Fonemalarning fonetik va fonologik xususiyatlari, ular orasidagi oppozitsiyalar va bu oppozitsiyalarning nutq jarayonidagi roli tadqiq qilinadi. Shuningdek, jarangli va jarangsiz undoshlar tizimining tarkibi, ular orasidagi paradigmatic munosabatlar hamda bu munosabatlarning fonologik tizimdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari asosida misollar keltirilib, nazariy qarashlar amaliy dalillar bilan mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: jarangli, jarangsiz, kontrast, zidlanish, distinktivlik, privativ, undosh, konstanizm, fonetik hodisa.

Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg'alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o'tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli Undosh tovushlar hosil bo'ladi. Dunyodagi har bir til o'ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi konstantizm (lotincha: consonans — undosh tovush) deyiladi.

Undosh tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh tovushlar soni 24 ta bo'lsa, boshqa tillarda bundan kam (mas, turk tilida 17 ta) yoki ortiq bo'lishi mumkin. Bu miqdor rus tilida 34 tani, fin 14 tani tashkil etadi. Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

- 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra;
- 2) hosil bo'lish o'rniga (nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra;
- 3) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
- 4) palatalizatsiyaga (tilning qattiq tanglay tomon ko'tarilishiga) ko'ra. Ushbu tasniflarni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi 24 ta b, v, g, dj (jyuri), j (jo'ja), y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h) Undosh tovushlar misolida ko'rib chiqish mumkin. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, Undosh tovushlar 2 asosiy turga bo'linadi:

sonorlar va shovqinlilar. Sonorlar (m, n, ng, l, r) tarkibida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladi. Sh o v qinlilar esa faqat shovqindan yoki shovqinga ovoz qo‘shilishidan qosil bo‘ladigan Undosh tovushlardir. Ovozning qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko‘ra, shovqinli undoshlar ham 2 ga: jarangli undoshlar va jarangeiz undoshlarga bo‘linadi. Jarangli undoshlar (mas, b, v, g, d, z, y) shovqinga ovoz qo‘shilgan undoshlardir. Jarangsiz undoshlar esa (p, f, k, t, s, sh) faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘ladi.

Fonemaning muhim funksional belgisi distinktivlikdir.¹ Farqlash tushunchasi zidlash tushunchasini taqozo etadi. N.S.Trubetskoyning ta’kidlashicha, ikki narsa bir-biriga zidlanganidagina o‘zaro farqli belgisi namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, tovushlarning belgisi ham boshqa shunga yaqin tovushlarning belgisiga zidlangandagina, uning ma’no farqlash (distinktiv) funksiyasi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham til birliklarining farqlanishida lingvistik zidlanishlar muhim o‘rin egallaydi. Fonologik zidlanishlar tasnifida ularning ma’no farqlash va ma’no farqlamaslik belgisi muhim ahamiyatga ega. Bu belgiga ko‘ra fonologik zidlanishlar ma’no farqlovchi va ma’no farqlamaydigan zidlanishlarga bo‘linadi. Birinchi zidlanish fonologik muhim zidlanish sanalib, u morfema va so‘zlarning moddiy shakllantirish bilan birga, ularning ma’nolarini farqlash vazifasini bajaradi. Paydo bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra undosh fonemalar belgisi asosiy, jarangli, jarangsiz, qattqlik-yumshoqlikka ko‘ra belgisi korrelyativ, shovqinlilik-sonorlikka ko‘ra farqlovchi belgisi nisbiy belgilarga ajratiladi. Undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisi ham fonologik muhim belgi sanaladi. Bu belgi asosida undoshlar o‘zaro privativ zidlanishga kirishadi.

Jarangli undoshlar bunday belgiga ega, markerlangan, jarangsiz undoshlar esa ega emas, markerlanmagandir. Bir qator undoshlar bu belgiga ko‘ra o‘z ziddiga ega. Shuning uchun ular korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g‘ va boshq. Shu bilan birgalikda o‘z juftiga ega bo‘lmagan undoshlar ham mavjud. Masalan, m, n, l, r, ng, y undoshlarining jarangsiz; sh, x, h undoshlarining jarangli jufti mavjud emas. Jarangli-jarangsizlik belgisining fonologik muhim belgi hisoblanishining sababi shundaki, bu belgiga ko‘ra zidlanayotgan undoshlar bir xil sharoitda biri o‘rnida kelib, ma’no farqlash xususiyatiga ega. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan ikki tovush N.S.Trubetskoyning fonemalarni ajratish qoidalarining ikkinchisiga muvofiq, ikkita alohida-alohida fonemalarning vakillari sanaladi.¹ Masalan, hozirgi o‘zbek tilida pir-bir; sor-zor; tor-dor; chala-jala; kul-gul; qor-g‘or singari leksemalar so‘z boshi pozitsiyasidagi undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra o‘zaro almashinuvi natijasida bir-biridan mazmuniy farqlangan. Jarangli undoshlarning so‘z boshida ishlatilishi turkiy tillarning barchasi uchun bir xil emas. Ayrim turkiy tillarda jaranglilar so‘z boshida qo‘llanilmaydi. (chuvash, xakas tillarida so‘z boshida faqat jarangsiz undoshlar qo‘llaniladi). Umumturkiy tillarda so‘z

boshida portlovchi p va b, t va d, q va gʻ larni qarama-qarshi qoʻyish minimal hisoblanadi. Boshlangʻich sirgʻaluvchilarning (s va z) qarama-qarshiligi esa umuman rad etiladi. Jarangli va jarangsiz tovushlar zidlanishi adabiy matnda oddiy fonetik hodisa emas, balki chuqur maʼno yuklangan uslubiy vositadir. Bu hodisa orqali muallif obrazga kontrast beradi, ruhiy holatlarni yoki voqealar oʻrtasidagi ziddiyatni tovushlar vositasi bilan taʼsirli koʻrsatadi. Ayniqsa sheʼriyatda bu uslub oʻquvchining ruhiyatiga bevosita taʼsir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://uz.wikipedia.org>
- 2.Hozirgi oʻzbek adabiy tili (H.Jamolxonov) Toshkent– «Talqin» –2005
- 3.«Oʻzbek tili fonetikasi» Oʻquv–uslubiy qoʻllanma. Andijon–2016
- 4.<https://namdu.uz>
- 5.<https://www.ziyouz.com>